

“Subscriber Control” tizim orqali raqamli texnologiyalarida sodir etiladigan korrupsion xavf-xatarlarni kamaytirish

Raqamli texnologiyalar vositasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarga qarshi kurashishni kuchaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli mahsulotlar (xizmatlar) iste’molchilari huquqlarini himoya qilish va raqamli texnologiyalar vositasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarga qarshi kurashishni kuchaytirish choralari to‘g‘risida” 2023-yil 30-noyabrdagi PQ-381-son qarori qabul qilingan. Mazkur qaror bilan tasdiqlangan Raqamli texnologiyalar vositasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarga qarshi kurashish va raqamli mahsulotlar (xizmatlar) iste’molchilari huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ga asosan “O‘zbekiston telekommunikatsiya tarmoqlarini boshqarish respublika markazi” davlat unitar korxonasi (“O‘zTTBRM” DUK) tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki bilan hamkorlikda SIM-karta, mobil qurilmaning identifikatsiya kodi, internet tarmog‘idan foydalangan holda “Mobil aloqa darajasida axborot xavfsizligini ta’minlash tizimi” ishlab chiqilmoqda.

Ushbu axborot tizimini ishlab chiqishdan ko‘zlangan maqsad Telecom Antifrod tizimi to‘lov tizimlari va banklar foydalanuvchilarini tashqi firibgarlik harakatlaridan himoya qilishdan iboratdir. Xususan:

- firibgarlikdan yo‘qotishlarni kamaytirish (kartalar va mijozlar hisoblaridan mablag‘larni hisobdan chiqarish va h.k.);
- firibgarlik va kiberjinoyatlar bilan bog‘liq hodisalarni tekshirish tartibini yanada takomillashtirgan holda soddalashtirish;
- reputatsiyani saqlab qolish va imidj xatarlarini kamaytirish, banklar va umuman to‘lov tizimlariga ishonchni oshirish.

Bugungi kunda, “Mobil aloqa darajasida axborot xavfsizligini ta’minlash tizimi”ning dastlabki talqini ishlab chiqilib, Markaziy bank tavsiyasiga ko‘ra “Ipoteka bank” ATIB, “TBC Bank” ATB, “O‘zmilliybank” AJ, “APEX BANK” AJ, “Ziraat Bank Uzbekistan” AJ, “BRIO GROUP” AJ, “A-PAY” MChJ, “Pay-Way MChJlarda sinovdan o‘tkazilmoqda.

Hozirda “Mobil aloqa darajasida axborot xavfsizligini ta’minlash tizimi” “ANOR BANK” AJ, “Biznesni rivojlantirish banki” ATB, “AloqaBank” AT tijorat banklarida test sinovlaridan to‘liq muvaffaqiyatli o‘tdi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligining 2024-yil 8-iyuldagi 09/44-4-14182-sonli xatiga asosan “O‘zTTBRM” DUKning “Mobil aloqa darajasida axborot xavfsizligini ta’minlash tizimi” Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimi (Yagona yetkazib beruvchilar reestri)ga kiritildi.